

MADANIYFTLAR YUKSALISHIDA TURKIY XALQLAR BIRDAMLIGINING O'RNI

Yuldasheva L.S.

*Toshkent Davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, (PhD)*

Abukarimova G.B

*Toshkent Davlat Transport Universiteti ijtimoiy
fanlar kafedrasida falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Maqolada turkiy xalqlarning birlashuvi madaniyat rivojida qanday o'rin tutishi, u qanday tarzda amalga oshirilayotgani va qaysi sohalarida samarali hamkorlik olib borilayotgani tahlil qilinadi.*

Dunyo miqyosida milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni tiklash va uni yanada boyitish masalasi har bir xalq uchun dolzarbdir. Turkiy xalqlar tarixan juda katta hududda yashab kelgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq til, madaniyat, urf-odat va qadriyatlarga ega millatlar hisoblanadi. Ularning birlashuvi nafaqat tarixiy asoslarga, balki zamonaviy geosiyosiy, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarga ham tayanadi. Ayni paytda globallashuv jarayonida turkiy xalqlarning bir-biriga yaqinlashishi, madaniy aloqalarni mustahkamlash orqali umumiy taraqqiyotga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlari: *Ma'naviyat, madaniy meros, millat ko'zgusi, qadriyatlar, geosiyosat, adabiyot, san'at, folklor.*

Аннотация: *В статье анализируется роль объединения тюркских народов в развитии культуры, как оно реализуется, в каких сферах осуществляется эффективное сотрудничество.*

Проблема сохранения национальной идентичности, восстановления культурного наследия и его дальнейшего обогащения актуальна для каждого народа. Тюркские народы — это народы, исторически населяющие очень большую территорию и имеющие язык, культуру, обычаи и ценности, тесно переплетенные друг с другом. Их объединение базируется не только на исторических основах, но и на современных геополитических, культурных и духовных потребностях. В то же время в процессе глобализации все большее значение приобретает сближение тюркских народов и укрепление культурных связей.

Ключевые слова: *Духовность, культурное наследие, национальное зеркало, ценности, геополитика, литература, искусство, фольклор.*

Annotation: *Translated with DeepL.com (free version) The article analyses the role of unification of Turkic peoples in the development of culture, how it is implemented, in what spheres effective cooperation is carried out.*

The problem of preservation of national identity, restoration of cultural heritage and its further enrichment is actual for every nation. Turkic peoples are the peoples historically inhabiting a very large territory and having language, culture, customs and values closely intertwined with each other. Their unification is based not only on historical foundations, but also on modern geopolitical, cultural and spiritual needs. At the same time, in the

process of globalisation, the rapprochement of Turkic peoples and the strengthening of cultural ties are becoming increasingly important.

Keywords: *Spirituality, cultural heritage, national mirror, values, geopolitics, literature, art, folklore.*

Ilmiy maqsad: *Turkiy xalqlar madaniyatini rivojlantirish, mintaqaviy yuksalishga erishish, davlatlar suvirenitetini mustahkamlash va ularning xalqaro maydondagi mavomini oshirish omili sifatida turkiy tilli xalqlarni birlashtirish zarurati va istiqbollari asoslashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot integratsiyasining asosiy yo'nalishlari, to'siqlari va muammolarini bartaraf etish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.*

Dolzarlighi. Turkiy xalqlar tarixan uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Ular o'zlari yashagan joylardagi madaniyatlar bilan integratsiyalashgan, shuningdek, bir-biri bilan ham aloqada bo'lgan. Turkiy xalqlarning birlashuvi, ularning madaniy rivoji uchun muhim shart hisoblanadi.

O'tmish madaniy merosini millat ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, boshqacha aytganda, uni ijodiy o'zlashtirish, unga yangi mazmun va ma'no berish milliy-madaniy taraqqiyotning bir tomoni xolos. Ushbu jarayonning ikkinchi, yanada ahamiyatli tomoni, madaniyatning yangilanishi, yangi betakror va noyob hodisalarning paydo bo'lishi, umuminsoniy madaniyatning yangidan-yangi qatlamlarining o'zlashtirilishidir. Busiz madaniyat rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi.

Turkiy xalqlar – O'rta Osiyo, Kavkaz, Volga bo'yi, Sibir, Balqan va Osiyoning turli hududlarida yashovchi, turkiy tillar oilasiga mansub xalqlardir. Bu xalqlar qatoriga o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tatarlar, bashqirlar, turklar, ozarlar, uyg'urlar, chuvashlar, qoraqalpoqlar va boshqalar kiradi. Ularning umumiy kelib chiqishi, bir-biriga yaqin tillari, urf-odat va qadriyatlari, tarixi va diniy e'tiqodi (asosan islom) ularni ma'naviy jihatdan bog'laydigan muhim omillar hisoblanadi.

Turkiy xalqlar tarixan ko'plab davlatlar va imperiyalarni tashkil qilgan. Ular asosan Ortasiyo, Kavkaz, O'rta Yer, va Yevropaning ba'zi qismlarida yashagan. Turkiy xalqlarning tili, dini, an'analari va madaniyati o'zaro o'xshashliklarga ega. Bu ularning birlashuvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Madaniyatlarining rivoji, bir-biri bilan aloqada bo'lishlari va o'zaro ta'sirlashuvi orqali amalga oshadi.

Ilk turk davlatlari — G'o'q turk qag'anligi, Uyg'ur qag'anligi, Qarluqlar davlati va boshqalar tarixda umumiy siyosiy va madaniy makon yaratishga harakat qilgan. Turkiy xalqlar islom dinini qabul qilgandan so'ng, madaniy birlik yanada kuchaygan. Til, adabiyot, me'morlik va san'atda turkiy xalqlar bir-biriga ta'sir o'tkazgan va boy ma'naviy meros qoldirgan.

Bugungi kunda turkiy xalqlar o'rtasidagi birlashuv nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki umumiy kelajakni yaratish maqsadida ham amalga oshirilmoqda. Bu birlashuvning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Madaniy aloqalarni mustahkamlash — til, adabiyot, san'at va milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish;
2. Turkiy tillar va ilmiy almashinuvni qo'llab-quvvatlash;

3. Yoshlar o'rtasida ma'naviy yaqinlikni kuchaytirish;
4. Umumiy tarixiy merosni tadqiq qilish va o'rganish;
5. Xalqaro miqyosda turkiy xalqlarning imiji va nufuzini oshirish.

Material va metodlar

Tadqiqotda tarixiy qiyosiy tahlil, kontent tahlili, umumlashtirish, tizimlashtirish usullardan foydalanilgan. Turkiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Ozarbayjon, Qirg'iston va boshqa turkiy mamlakatlarning madaniy, iqtisodiy va siyosiy tashabbuslari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

MUXOKAMA

Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar tarixan yaqin aloqada bo'lib, umumiy yozuv, an'analar, urf odatlar va turmush tarzida o'z aksini topgan. Zamonaviy muammolar ushbu manbalarga hozirgi davr voqeliklarini hisobga olgan holda qaytishni talab qilmoqda. Eng muhim jihatlardan biri ommaviy axborot vositalari, ta'lim va ilmiy loyihalarni o'z ichiga olgan umumiy axborot makonini rivojlantirishdan iboratdir. Iqtisodiy integratsiya qo'shma korxonalar tashkil etish, transport yo'laklari va energetika loyihalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Siyosiy hamkorlik Turkiy davlatlar tashkiloti kabi tashkilotlar doirasida amalga oshirilishi mumkin. To'siqlarga siyosiy kurslardagi farqlar, tashqi ta'sir va ichki qarama-qarshiliklar kiradi, ammo umumiy madaniy poydevorning mavjudligi muloqotini o'zaro hurmat asosida qurishga imkon beradi.

Turkiy xalqlarning birlashuvi madaniy rivojlanishga quyidagi sohalarda katta hissa qo'shmoqda:

1. Til sohasida hamkorlik: Turkiy tillarning o'xshashligi, ularning manbalarini o'rganish va umumiy lug'atlarni yaratish turkiy xalqlar o'rtasidagi til barerini kamaytiradi. Birgalikda lug'atlar, o'quv qo'llanmalar, tarjima markazlari yaratilishi turkiy tillarni asrashda muhim ahamiyatga ega. Turkiy tillar orasidagi aloqa, adabiy asarlarning tarjima qilinishi va mushtarak adabiy an'analarning rivojlanishiga yordam beradi.

2. Adabiyot va san'at: Turkiy xalqlarning musiqa va badiiy meroslari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning madaniyatini boyitadi Turkiy xalqlar adabiyotida Alisher Navoiy, Yunus Emre, Maxtumluli, Abay, Chingiz Aytmatov singari mutafakkir va shoirlar xalqlarimiz uchun umumiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Ular asarlarini har bir turkiy xalq o'z ona tilida o'qishi, ma'naviy yaqinlikni kuchaytiradi.

3. Folklor va urf-odatlar: Turkiy xalqlar o'rtasida madaniy almashinuvlar, an'analar, urf-odatlar va san'at shakllari o'zgarishlarga olib keladi. Folklor — har bir xalqning milliy qadriyatlarini ifodalovchi muhim madaniy element. Turkiy xalqlardagi osh to'yi, Navro'z, el orasida kuylash, eposlar aytish kabi umumiy urf-odatlarni qayta tiklash va ko'rgazmalar, festivallar orqali namoyon etish milliy birlikni oshiradi.

4. Oliy ta'lim va ilmiy hamkorlik: Turkiy xalqlar o'rtasida oliy ta'lim sohasida hamkorlik so'nggi yillarda keng rivojlanmoqda. Turkiy mamlakatlardagi universitetlar va ilmiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik, talabalar va olimlarning o'zaro

almashinishini ta'minlaydi. Xorazm, Anqara, Boku, Almati kabi shaharlardagi universitetlar o'rtasida talabalar almashinuvi, ilmiy konferensiyalar tashkil etilmoqda. Turkiy universitetlarning tashkil etilishi (masalan, Turkiy universiteti) madaniy va ilmiy birlikni mustahkamlamoqda.

5. Zamonaviy integratsiya daridagi birlashuvda IT texnologiyalarning o'rni beqiyos. Internet va kommunikatsiya vositalari turkiy xalqlarning o'zaro aloqasini engillashtirdi. Madaniy tadbirlar, festivallar va konferensiyalar onlayn formatda o'tkaziladi.

6. Siyosiy davralardagi hamkorliklar: Turkiy davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar ham madaniy hamkorlikka olib kelmoqda. Bunday aloqalar turkiy xalqlarning umumiy manfaatlari uchun foydali.

Muhama va natijalar

Bugungi kunda jahon globallashtirish jarayonlari fonida milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalasini dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarixiy ildizlari o'ta chuqur, boy va rang-barang madaniy merosga ega bo'lgan Turkiy xalqlarning umumiy tili, dini va madaniyati ularni bir-biriga yaqinlashtirib kelgan. Shu bois bugungi kunda ushbu umumiylikni asrash, turli sohalarda hamkorlikni mustahkamlash va madaniy aloqalarni kuchaytirish davr talabidir.

So'nggi o'n yillikda turkiy mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rasmiylashtirish va institutsional shaklga keltirish maqsadida qator tashkilotlar faoliyat yuritmoqda:

- Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT): 2009 yilda tashkil etilgan bu tashkilot turkiy mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini muvofiqlashtiruvchi asosiy tuzilma hisoblanadi.

- TURKSOY — Turkiy madaniyat va san'at xalqaro tashkiloti, turkiy xalqlarning madaniy almashinuvi, festivallar, konsertlar, asarlarning tarjimasi va boshqa madaniy tadbirlarni tashkil etadi.

- Turon akademiyasi — turkiy xalqlarning tarixi, etnografiyasi, tili va madaniyatini ilmiy jihatdan o'rganish bilan shug'ullanuvchi markaz.

Ushbu Fanlar akademiyasining bosh maqsadi ilmiy tadqiqot, ilmiy hamkorlik, tajriba almashinuvi va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishdan iboratdir.

Birlashuv jarayonida qator muammolar ham mavjud:

- Tillar orasidagi farq va tarjima muammolari;
- Ayrim davlatlarda milliy madaniyatlarning global madaniyatga yo'qolishi xavfi;
- Iqtisodiy nochorlik tufayli madaniy loyihalarga etarli e'tibor berilmasligi.

Bu muammolarni hal qilish uchun:

- Davlatlararo kelishuvlar orqali madaniy loyihalarga moliyaviy ko'mak berish;
- Tarjimonlik maktablarini tashkil qilish;
- Turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini o'rganishni maktab va universitet dasturlariga kiritish zarur.

Xulosa

Turkiy tilli xalqlarni birlashishi barqaror, raqobatbardosh va o'zini o'zi ta'minlaydigan mintaqani shakllantirish uchun kuchli manbadir. Iqtisodiyot, siyosat va

madaniyat sohasidagi say-harakatlarni birlashtirish global miqiyosda muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin. Buninguchun davlatlar, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati darajasida tizimli ishlar olib borilishi zarur. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, faqat o'zaro ta'sir, muloqat va strategik rejadlashtirish orqali turkiy tillar xalqlarning mustahkam ittifoqini barpo etish mumkin.

Turkiy xalqlar birlashuvi mavzusi bugungi kunda, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy munozaralar markaziga aylanib qolmoqda. Integratsiyalashuvning har bir jihati chuqur izlanishni, tarixiy kontekstni tushuntirishni va zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilishni talab qiladi. Ta'kidlash joizki, turkiy xalqlar, davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash borasidagi say – harakatlar nafaqat ularning xalqaro sub'ektligini kuchaytiradi, balki hayotning barcha sohalarida barqaror rivojlanish uchun sharoit yaratadi. Birlashuvni siyosat, iqtisodiyot, ta'lim, madaniyat va axborot sohasini o'z ichiga olgan ko'p bosqichli jarayon sifatida ko'rib chiqish lozim. Bunda xalq fikrini inobatga olish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, kelajakka umumiy qarashni shakllantirish zarur.

Turkiy xalqlarning birlashuvi madaniyatlarning rivoji uchun muhim shartdir . Turkiy xalqlarning birlashuvi — bu tabiiy jarayon bo'lib, uning asosida umumiy tarix, til, madaniyat va qadriyatlar yotadi. Madaniy rivojlanish, ma'naviy yaqinlashuv, til va adabiyot, ilmiy hamkorlik bu birlashuvning asosiy ustunlaridir. Bu jarayonni izchil va samarali davom ettirish, uni keng jamoatchilik orasida targ'ib qilish har bir turkiy millat vakilining burchidir. Ushbu jarayonning samarali amalga oshishi uchun turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy almashinuv, ta'lim va ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Zamonaviy texnologiyalar va siyosiy aloqalar bu jarayonni yanada rivojlantirish imkonini beradi. To'g'ri yo'l tutish orqali turkiy xalqlar o'z madaniyatlarini yanada boyitishlari va umumiy merosini saqlab qolishlari mumkin. O'zbek xalqining istiqboli va farovonligini qo'shni -Turkiy xalqlar bilan uzviy aloqalar asnosida, mintaqada inson qadrining barcha narssalardan ustun ekanligini ta'minlash borasida o'rtga qaytmaydigan, islohatlarni amalga oshirish tashabbuslarini ilgari suruvchi va bu borada har tomonlama o'rnak bula oladigan davlatdir.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va uni kelajak avlodga etkazish — turkiy xalqlarning umumiy maqsadidir.

ADABIYOTLAR:

1. Ismoilov, S. (2010). Turkiy tillar va madaniyatlar orasidagi bog'liqliklar. Anqara: Turk tili va madaniyati institutlari nashriyoti.
2. Rustamova, Z. (2015). Turkiy xalqlarning til va madaniyat yo'nalishlaridagi hamkorligi. Qoraqalpog'iston: Qoraqalpog'iston davlat universiteti nashriyoti.
3. Yuldasheva, LS. (2024). Морально-правовые основы народной медицины. . Miesto Rishlossi , 54 года , 1771–1772. Ролучено s <http://miastoprzyzlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5532>.

4. Yuldasheva, Lola Sadullaevna ДУХ КАК ПРИРОДНАЯ СИЛА В МНЕНИЯХ БЕРУНИ // ORIENSS. 2024. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spirit-as-a-natural-force-in-beruni-s-views> (data obrasheniya: 16.04.2025).